O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 25-iyul | 405-11-0-Q/24 | Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyundagi PQ-239-son qarori to‘g‘risida

Mamlakatimizda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, ilmli va ma’rifatli yoshlarni kamol toptirish, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, xorijiy tillarga o‘qitishni yanada ommalashtirish, shuningdek, bunday faoliyat bilan shug‘ullanuvchi subyektlarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyundagi “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-239-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida:

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyundagi PQ-239-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

a) Yoshlar ishlari agentligi zimmasiga quyidagi **qo‘shimcha funksiyalar** yuklanganligi:

yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish jarayonlarini takomillashtirish, talab yuqori bo‘lgan chettillarini mukammal o‘zlashtirish uchun sharoitlarni kengaytirishi;

xorijiy tillarni o‘qitish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar hamda nodavlat ta’lim tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda - xususiy o‘quv markazlari), ushbu yo‘nalishda faoliyat yurituvchi boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash, sohadagi muammolarni muntazam ravishda tahlil qilish va ularning yechimi bo‘yicha takliflar tayyorlashi;

xususiy o‘quv markazlari reytingini shakllantirish hamda reytingda yuqori o‘rinni egallaganlarni rag‘batlantirishi;

yoshlar orasida kasb-hunar va xorijiy tillarni o‘rganishni targ‘ib qilish, ushbu yo‘nalishdagi ijtimoiy loyihalar, ko‘rik-tanlov va olimpiadalarni tashkil etishi;

b) imtihon topshirish xarajati qoplanadigan xalqaro imtihon tizimlari bo‘yicha **ingliz, nemis, fransuz, koreys, xitoy** va **yapon** tillaridan kamida **S1** yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi sertifikat olgan yoshlarni imtihon topshirish xarajatlarini kompensatsiya qilishga qo‘shimcha ravishda Yoshlar ishlari agentligiga ajratilgan mablag‘lar doirasida **o‘qish xarajatlarini qoplash uchun bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari** miqdorida **bir martalik moddiy rag‘batlantirish** tizimi joriy etilishi;

d) **2024-yil 1-sentyabrdan** boshlab **2027-yil 1-yanvarga** qadar yoshlarning **nemis, fransuz, koreys, xitoy** va **yapon** tillari bo‘yicha xalqaro imtihon tizimlarida **imtihon topshirish xarajatlari qoplab berilishi uchun** ular tomonidan to‘planishi lozim bo‘lgan **ballning** (sertifikat darajasining) **minimal ko‘rsatkichi bir pog‘ona pasaytirilishi** hamda mazkur xarajatlar Yoshlar ishlari agentligiga ajratilgan mablag‘lar doirasida qoplanishi;

e) umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining **sinf xonalarini** ta’lim jarayonidan bo‘sh vaqtda **kasb-hunar va xorijiy tillarni** o‘qitish faoliyatini amalga oshirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida tekin foydalanish huquqi bilan xususiy o‘quv markazlariga berishga ruxsat etilishi;

bunda tegishli umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining ro‘yxati Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlanishi, shuningdek, tekin foydalanish to‘g‘risidagi shartnoma balansda saqlovchi va xususiy o‘quv markazi o‘rtasida tuzilishi;

f) Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda **2024-yilda** kamida **1 mingta** umumiy o‘rta ta’lim muassasasining sinf xonalarini xususiy o‘quv markazlariga kasb-hunar va xorijiy tillarni o‘qitish faoliyatini amalga oshirish uchun tekin foydalanishga berishi;

bunda sinf xonalarini ijaraga olgan xususiy o‘quv markazlari tomonidan tegishli umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qiyotgan "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kiritilgan oilalar farzandlari bo‘lgan yuqori sinf o‘quvchilari, biroq o‘quv kurslarida tahsil oluvchilar umumiy sonining 20 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda bepul o‘qitishi;

g) **2024-yil 1-oktyabrdan** boshlab:

Yoshlar ishlari agentligi har yili xususiy o‘quv markazlarining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimidagi **reytingini tuzashi** hamda rasmiy veb-saytida e’lon qilib borishi;

reyting natijalariga ko‘ra **olis va chekka hududlarda faoliyat ko‘rsatuvchi eng yuqori ko‘rsatkichga ega 100 ta xususiy o‘quv markazining** ta’lim jarayonida foydalanadigan bino va inshootlar uchun **ijara to‘lovi xarajatlarining** bir qismi

Yoshlarga oid davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan **kompensatsiya** qilinishi;

h) 2024-2026-yillarda oliy ta’lim tashkilotlarining **xorijiy til filologiyasi** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 3 va 4-kursda tahsil olayotgan hamda kamida **S1 darajadagi sertifikatga** ega talabalariga umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarida o‘qituvchi sifatida mehnat faoliyatini amalga oshirishiga **ruxsat etilishi;**

i)**2024-yil 1-oktyabrga** qadar mazkur qarorning 4-bandi "a" kichik bandida ko‘zda tutilgan choralarni amalga oshirish maqsadida olis va chekka hududlar ro‘yxatini tasdiqlash hamda rasmiy veb-saytida e’lon qilinishi;

j) Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligi:

2024-yil 1-oktyabrga qadar **nemis, fransuz, koreys, xitoy** va **yapon** tillari bo‘yicha tan olinadigan xalqaro imtihon tizimlari va ular tomonidan beriladigan sertifikatlar ro‘yxatini kengaytirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritishi;

k) Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi **2024/2025 o‘quv yilidan** boshlab:

ota-onalar va o‘quvchilar talabidan kelib chiqib, ixtisoslashtirilgan maktablar va kasb-hunar maktablarida amaldagi tayanch o‘quv rejasidagi soatlar doirasida chet tili sifatida nemis, fransuz, koreys, xitoy va yapon tillarini o‘qitishni yo‘lga qo‘yishi;

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarida ingliz tilidan tashqari boshqa xorijiy tillar bo‘yicha ham bosqichma-bosqich pedagoglarni qayta tayyorlash kurslarini tashkil qilinishi;

m) Yoshlar ishlari agentligi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Tashqi ishlar vazirligi:

2025-yil 1-yanvarga qadar **ingliz tili,** keyingi yillarda boshqa **xorijiy tillar va zamonaviy kasblarni o‘rgatish** bo‘yicha dunyoning yetakchi markazlari, oliy ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ularning **xalqaro ta’lim standartlariga mos ta’lim dasturlarini** "Ibrat farzandlari" va "Ustoz" loyihalariga tatbiq etish choralarini ko‘rilishi;

2025-yil 1-dekabrga qadar nemis, fransuz, koreys, xitoy va yapon tillarini bilish darajasini baholovchi nufuzli xorijiy tashkilotlar bilan muzokaralar o‘tkazish hamda O‘zbekistonda, birinchi navbatda, hududlarda ularning qo‘shimcha **5 ta** markazi (filiali) ochilishini ta’minlashi;

n) Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligi:

2024-yil yakuniga qadar ingliz, nemis, fransuz, ispan, koreys, xitoy va yapon tillarini **V2 darajasida** biladigan yoshlar sonini **100 ming** nafarga yetkazishi;

2024/2025 o‘quv yilidan boshlab ta’lim muassasalarining chet tili fani bo‘yicha darslarida videomahsulotlardan, shu jumladan "Ibrat farzandlari" platformasidan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yishi;

o) Yoshlar ishlari agentligi:

vazirlik va idoralar hamda davlat ishtirokidagi korxonalarda yosh, tashabbuskor **xodimni yoshlar bilan ishlash uchun mas’ul** etib belgilashi;

yoshlar bilan ishlash uchun mas’ul xodimlar faoliyatini **Yoshlar ishlari agentligi tomonidan** uslubiy va amaliy jihatdan muvofiqlashtirishi;

p) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri, shuningdek, tuman (shahar) hokimlari Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan birgalikda:

xorijdagi ko‘makka muhtoj bo‘lgan yoshlar muammolarini hal etishi, ularni Vatanga qaytarishi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan kasb-hunar va xorijiy tillarga o‘qitishi hamda bandligini ta’minlash choralarini ko‘rishi;

q) Yoshlar ishlari agentligi va O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi:

bolalarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ota-ona, oila va kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda tabiatni asrab-avaylash tuyg‘ularini shakllantirishga qaratilgan asarlarni yaratish, ularni chop etish va ommalashtirish choralarini ko‘rishi;

r) Yoshlar ishlari agentligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Ushbu qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Yoshlar ishlari boshqarmasi boshlig‘i M.G‘aniyev, Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i Sh.Dolimov hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i T.Boymatov belgilansin.

4. Qaror ijrosini muhokama qilib borish hamda mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish viloyat hokimining o‘rinbosari Sh.Raximov zimmasiga yuklansin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**